

O‘SPIRINLIK DAVRIDA O‘QUV FAOLIYATIGA MOTIVATSIYANING TA’SIRI

Dehqonboyeva Mahzuna Najmuddin qizi

Surxondaryo viloyati Uzun tumani

18-umumi o‘rta ta’lim maktabi amaliyotchi psixolog

Email: malumaguna@gmail.com

ANNOTATSIYA

O‘spirinlik davrida o‘quvchilarning kasb tanlashi uning o‘quv motivatsiyasiga ta’sir etadi, o‘z navbatida o‘quv motivatsiyalar esa ularning o‘quv faoliyatiga sezilarli darajada ta’sirini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Motiv, motivatsiya, o‘spirinlik, muvaffaqiyatga intilish, muvaffaqiyatsizlikdan qochish, pedagogik, psixologik, xulq-atvor.

Ma’lumki, Faoliyatning amalga oshishi va shaxs xulq-atvorini tushuntirish uchun psixologiyada “motiv” va “motivatsiya” tushunchalari ishlataladi. Motivatsiya – inson xulq-atvori, uning bog‘lanishi, yo‘nalishi va faolligini tushuntirib beruvchi psixologik sabablar majmuini bildiradi. Bu tushuncha u yoki bu shaxs xulqini tushuntirib berish kerak bo‘lganda ishlataladi, ya’ni: “nega?”, “nima uchun?”, “nima maqsadda?”, “qanday manfaat yo‘lida?” degan savollarga javob qidirish – motivatsiyani qidirish demakdir. O‘spirinlik davri o‘ziga xos o‘zgarishlar davri ekanligi bilan birga, o‘ziga xos murakkab jarayonlarni boshidan kechirish davri hamdir. Bu davrda talabaning asosiy faoliyati o‘qish faoliyatidangina iboratdek tuyulsada, biroq bu faoliyatga ta’sir etuvchi juda ko‘plab omillar mavjudki, ularni tadqiqotlar davomida o‘rganish bugungi psixologiya fanining ham dolzarb vazifalari qatoridan o‘rin olgan. O‘spirinlik davrida ularning o‘quv faoliyatiga ta’sir ko‘rsatuvchi eng muhim omillardan biri bu talabalardagi muvaffaqiyatga intilish yoki muvaffaqiyatdan qochish motivlaridir. Bir so‘z bilan aytganda, muvaffaqiyatga erishish motivlari faoliyat yoki maqsadning sermahsul bajarilishiga bog‘liq. Muvaffaqiyatsizlik motiviga moyil kishilar esa o‘rtacha qiyinchilik tug‘diruvchi yoki yuzaki, sayozroq maqsadlarni tanlaydilar. Ular har bir ishini o‘ylab amalga oshiradilar, bekorga tavakkalchilik qilmaydilar. Ular o‘z oldilariga qo‘ygan maqsadlarini ba’zan arzimagan bahonalar bilan tark etadilar va amalga oshirishni paysalga soladilar yoki voz kechadilar.

Bizning fikrimizcha, agar shaxsda ommaviy holatda muvaffaqiyatga intilish motivatsiyasi yuqori darajada shakllangan bo‘lsa, unda har qanday faoliyat yoki

maqsadga intilish hamda uni amalga oshirish ham qiyin kechmaydi yoki qiyin kechsada, shaxs ortga chekinmaydi.

Muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivatsiyasi yoshlardagi passiv hayotiy pozitsiya bilan ham izohlanishi mumkin, ya’ni ular o‘z kuch va imkoniyatlarini ortiqcha baholash natijasida juda yuqori marralarni orzu qiladilar, lekin bunga erishish uchun harakat qilishga qo‘rqadilar va kimdur ularga buni ta’minlab berishi kerak deb hisoblaydilar.

Ma’lumki o‘spirinlik davrida muvaffaqiyatga intilish motivatsiyasini o‘rganish muammosi nafaqat hozirgi kunning balki azaldan yechimi kutilayotgan yoki qaysidur ma’noda yechimi topilgan masalalar sirasiga kiradi.

Shuningdek, muvaffaqiyatga intilish darajasi yuqori va juda yuqori bo‘lgan sinaluvchilarda hayotga, o‘qishga, yashashga, turli xil to‘garaklarga bo‘lgan qiziqishning yuqoriligini kuzatuv va suhbatlar orqali aniqlab buni quyidagicha izohladik.

Motivlar orasida muhim o‘rinni qiziqishlar tashkil etadi. Qiziqish – shaxsdagi an’ana bo‘lib, aniq predmetdagi biron yo‘nalish yoki tarmoqlarni tugal belgilash bilan yakunlanadi. Qiziqishlar deganda, biz diqqatning, fikrning xayolning yo‘nalganligini tushunamiz; ehtiyoj esa mayl, xohish, irodada namoyon bo‘ladi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizkiki, Ta’lim faoliyatining muvaffaqiyatli kechishi pedagogik – psixologik xarakterdagi ko‘plab omillarga, xususan, ijtimoiy – psixologik va ijtimoiy – pedagogik omillarga bog‘liqdir. Shuningdek, motivatsiyaning kuchi va uning tuzilishi ham ta’lim faoliyatining muvaffaqiyatiga ta’sir qiladi. O‘spirinlarda o‘quv faoliyatida muvaffaqiyatga intilish va muvaffaqiyatsizlikdan qochish jarayonida oila a’zolarining, tengdoshlarining individual imkoniyatlarining ta’siri asosiy ro‘l o‘ynaydi. O‘spirinlik davrida motivatsiyaning shakllanishi ularda o‘ziga nisbatan ishonchning ortib borishi bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi va maqsadga intilish tizimining ortishi hamda o‘ziga va o‘zgalarga nisbatan hurmat, mustaqil qaror qabul qilish hissining ortib borishi motivatsiyaning shakllanishida asosiy ko‘rsatkich hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:(REFERENCES)

1. Akulina N. N. Vliyaniye obshchego intellekta i motivatsii na uspeshnost usvoyeniya znanii // Ananyevskiye chteniya 99: Tezisy nauchno-prakticheskoy konferensii. - SPb., 2000. [123]
2. Assev V. G. Motivatsionnaya reguljatsiya povedeniya linosti: Avtoreferat dis. na soisk. uchen. step, doktora psixol. nauk. M., 2003.[125-138]
3. Aseyev V. G. Motivatsiya povedeniya i formirovaniye lichnosti. M.2001.
4. Borozdina L. V. Diagnostika motivatsii dostijeniya uspexa i izbeganiya neudachi (avtorskaya razrabotka psixodiagnosticheskoy shemy). 2002.[98-103]
5. Vartanova I. I. K probleme diagnostiki motivatsii // Vestnik MGUYU Ser. Psixologiya. 2002.
6. Vilyunas V. K. Psixologicheskiye mehanizmy motivatsii cheloveka. M. 2004.